

ILK BOLALIK DAVRIDA BOLALAR NUTQNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Mamatova Aziza Bo'riboyevna

*TDPU Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim fakulteti Logopediya kafedrası
pedagogika fanlari doktori (PhD), dotsent*

G'ayratullayeva Mohira Azizovna

*TDPU Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim fakulteti Logopediya yo'nalishi 1-bosqich
talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada ilk bolalik davrida nutqning shakllanishi va rivojlanish jarayonlari ilmiy asosda yoritilgan bo'lib, tug'ilganidan to 3 yoshgacha bo'lgan davrida bola nutqining qanday bosqichma-bosqich rivojlanib borishi tahlil etilgan. Maqolada bola nutqining tovush madaniyati, grammatik me'yorlarni o'zlashtirishi va fonetik taraqqiyoti kabi jihatlari ham yoritilgan.

Kalit So'zlar: *Ilk bolalik, nutq shakllanishi, nutq taraqqiyoti, bolalar nutq rivojlanishi, leksik va grammatik rivojlanishi, nutqning bosqichma-bosqich shakllanishi.*

Аннотация: Данная статья посвящена научному освещению процессов формирования и развития речи в раннем детстве. Подробно анализируются этапы поэтапного совершенствования речи ребёнка от рождения до трёх лет, рост словарного запаса, переход от простых выражений к более сложным предложениям. Речь становится основным средством для осознания окружающего мира, выражения мыслей и потребностей ребёнка. В статье рассматриваются такие аспекты, как культура произношения, освоение грамматических норм и фонетическое развитие речи.

Ключевая Слово: Раннее детство, формирование речи, развитие речи, развитие речи у детей, лексическое и грамматическое развитие, поэтапное речи.

Annotation: This article provides a scientific overview of the processes of speech formation and development during early childhood. It offers a detailed analysis of the gradual improvement of a child's speech from birth to the age of three, the expansion of vocabulary, and the transition from simple expressions to more complex sentences. Speech becomes the primary means through which the child perceives the surrounding world, expresses thoughts, and communicates needs.

Key Words: Early childhood, speech formation, speech development, children's speech development, lexical and grammatical development, step-by-step speech formation.

Amerkalik mashhur psixolog professor Jerom Brunerning ta'kidlashicha: "Yaxshi ota-ona farzandi gapirishni boshlamasdan avval muloqotsiz aloqa o'rnatadi va shu aloqada yordamida u bilan o'ynab bolani rivojlantiradi". Aynan go'dak eshitadigan va o'rganadigan nutq uning miyasi rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Biz og'zaki, ya'ni so'lar bilan talaffuz qiladigan ma'lumot almashinuvi sifatida muloqotga kirishamiz. Biroq

go'dak bilan u so'zlashishni boshlagandagina muloqot qilish degan fikr mutlaqo noto'g'ri. Olimlarning ta'kidlashicha, hali gapira olmaydigan bola bilan ota-ona muloqoti uning rivojlanishida juda muhim hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, yosh bola gapira olmasa ham kattalarning suhbatini diqqat bilan tinglaydi va nimanidir tushunadi. Go'dak ona ko'kragini emayotganida ham, biror narsani qiziqib o'ynayotganida ham quloqlari hamma narsani eshitadi va miyasi olingan ma'lumotlarni o'zlashtiradi. Eshitayotgan so'zlarining ma'nosini hali tushunmagani uchun bolani past baholamang. Go'dakning xotirasi u tushunguniga qadar barcha ma'lumotlarni saqlaydi[3]

Bola tug'ilgandan boshlab ovoz chiqara boshlaydi. Bu ovoz yig'i va qichqiriqdan iborat. Bu ovozlar odam nuqtidan uzoq bo'lsa ham lekin ana shu yig'i va qichqiriq nutq apparatining 3 ta bo'limini (nafas olish, ovoz chiqarish va artikulyatsion apparat) rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir.

1 oylik. Chaqaloq tug'ilgan zahotiyoq qichqiradi va yig'laydi - bu nutqning ilk shakllaridir. Bola turli tovushlar chiqarib, til, lab va ovoz bog'lamlarini harakatlantirishni mashq qiladi. Nutq a'zolari rivojlanib, gapirish uchun tayyorlanadi. Bundan tashqari, chaqaloq nafaqat har qanday tovushlarni eshitadi, balki inson ovozini boshqa tovushlardan ajratib oladi. Bu holat esa eshitish orqali nutq rivojlanishining muhim bosqichi hisoblanadi

2 oylikdan boshlab chaqaloq alohida tovushlarni ayta boshlaydi - guvillaydi. Normal rivojlanib kelayotgan bola guvillash davrida ko'plab turli tovushlar chiqaradi: "a-aa", "a-gu", "am", "pl" kabi. Agar bola bilan kam gaplashilsa, bu davrda tovush chiqarish kechikadi va natijada nutq rivojlanishi ham orqaga suriladi.

3 oylik. Bolaning chiqaradigan tovushlari asta-sekin ko'payadi: unli tovushlar "a", "e", "u", "o", "i", va fiziologik so'rish aktiga moslashgan lab undoshlari "b", "p", "m" kabi tovushlar paydo bo'ladi. Ba'zi bolalarda esa murakkab bo'g'inlarning talaffuzi paydo bo'ladi (aga-aga, ta-ta, ba-ba va boshqalar). Bunda tovushlar birikmasi aniq artikulyatsiya qilinmaydi.[1]

Tadqiqotchilar N.L. Figurin va M.P. Denisovning ta'kidlashicha, qisqa tovushlardan uzun, kuylovchi tovushlarga o'tish bola harakatlarining o'zgarishi bilan bir vaqtda yuz beradi. Ularning fikricha, bu chaqaloqning ba'zi mushak guruhlarini uzoqroq vaqt davomida boshqarish qobiliyati ortgani bilan bog'liq.[2]

4 oylik bola hayotining chug'urlash davrining boshlanishi bo'lib sanaladi. V.A. Bogoroditskiy chug'urlashni tovushlar hosil bo'lishi jarayonidagi bolaning "ermagi" sifatida izohlaydi. Bunda u chug'urlashni nutq organlari bilan o'ynaladigan oyoq-qo'lini bemaqsad harakatlantirishiga o'xshash deb tushuntiradi, Boshqa mualliflar, masalan, M.A. Sikorskiy va A. Aleksandrov chug'urlashni atrofdagilar nutqiga taqlid "meva"si sifatida baholaydi.[1] Undan tashqari 4 oylikda eng muhim o'zgarish — bolaning kattalar bilan tovushlar orqali faol muloqot qilishni boshlashidir. Endi u onasining so'zlariga jilmayish orqali javob qaytaradi.

5-6 oylikda bolaning asab-ruhiy rivojlanishida katta o'zgarishlar yuz beradi.[2] Bola katta bilan muloqotda turli tovushlar va harakatlardan maqsadli tarzda foydalanishni boshlaydi. Endi u o'z harakatlari va ovoz apparatini ancha yaxshi boshqaradi va ularni aloqa vositasi sifatida ishlatadi. Bu bosqichda bola ataylab tovush chiqarib va harakatlar qilib, kattalarning e'tiborini o'ziga jalb qilishga intiladi va o'z istaklarini bildiradi.

6 oylikda bola “p”, “b”, “t”, “d”, “m”, “n” kabi undosh tovushlarni ayta boshlaydi. Birinchi bo‘g‘inlar (“pa”, “ba”, “ma”) paydo bo‘ladi. Bu rivojlanish bola og‘zaki apparatining va eshitish qobiliyatining yaxshilanishiga yordam beradi. Bola kattalar aytgan tovushlarni va o‘z tovushlarini eshitadi va ularni takrorlashga harakat qiladi. Shuningdek, u kattalar bilan muloqotdan tashqarida ham mustaqil ravishda tovushlar chiqaradi.

7 oylikda bola uzoq vaqt davomida g‘uvurlaydi, quvonch va norozilikni bildiruvchi turli xil tovushlar chiqaradi. So‘z-ramzlar paydo bo‘ladi: “bi-bi”, “myau”. O‘z ismiga javob reaksiyasini qaytaradi. Bola ko‘plab predmet nomlarini yoddan bilsada, lekin hozircha ularni faqatgina passiv lug‘atidagina saqlaydi.

8 oylik bo‘lganida, bola notanish tovushlarga taqlid qila boshlaydi. U endi takroriy bo‘g‘inlarni aytadi: “ma-ma”, “pa-pa”. Agar undan “Qayerda dada?”, “Qayerda ona?” deb so‘ralsa, bola kerakli kishini ko‘rsatishga harakat qiladi.

9 oylikda bola alohida bo‘g‘inlarni qo‘shib biriktirib aytadi. O‘ziga xos 2–3 ta bo‘g‘inni ko‘p marta va turli shaklda takrorlashni boshlaydi. Odatda, unli tovushlarni cho‘zib “kuylaydi” va kattalarning e‘tiborini jalb qilishga harakat qiladi. Bu jarayon natijasida tovushlar muloqot vositasiga aylanadi.

10 oylikda “yo‘q” so‘zini tushunadi va bola oddiy buyruqlarni anglashga qodir bo‘ladi. Boshqalarning tovush va imo-ishoralarini takrorlaydi. Narsalarga ishora qilish uchun barmoqlaridan foydalanadi. Bu davr imo-ishora davri deb ham ataladi.

11 oylikda bola ko‘plab so‘zlarni tushuna boshlaydi va ko‘p narsalarning nomini eslab qoladi. “Mama mama” va “baba baba” kabi turli tovushlarni chiqaradi.

12 oylikda bola birinchi marta ma’noli so‘zlar aytishi mumkin - “nanna”, “ada”, “aka”, “bo‘ldi”. Bola turli predmetlar guruhini ifodalash uchun bir xil so‘zdan foydalanadi. Masalan, “papa” so‘zi otasi, hasharot yoki qushni anglatishi mumkin. Ba’zi so‘zlarni idrok asosida tanib, takrorlaydi. Passiv lug‘at (tushuniladigan so‘zlar) aktiv lug‘atdan (aytiladigan so‘zlar) ko‘p bo‘ladi. Masalan, bola 20-30 ta so‘zni tushunsa-da, faqat 2-3 ta so‘z aytishi mumkin. Ishora, minika, harakatlar orqali muloqot qilishga harakat qiladi. Masalan, nimanidir xohlasa qo‘lini cho‘zadi, boshini silkib “yo‘q” degandek qiladi.

1 yoshga kelib, so‘z birinchi bor muloqat quroli sifatida xizmal qiladi, til vositasida xarakterini oladi va bolaning tovush doirasiga ta’sir ko‘rsata boshlaydi (uning tarkibiga kiruvchi fonemalar). Undan tashqari bu davr psixomotorikaning yangi rivojlanish bosqichi deb ataladi.[1]

1 - 1.6 yoshgacha. Bu davrda bolaning nutqi faol rivojlana boshlaydi. Bir yosh-u uch oylikgacha bola birlashtirib turli tovushlarni chiqaradi va ayrim so‘zlarni (masalan, hayratlanish yoki quvonch ifodasi sifatida) talaffuz qiladi. Bola vaziyatga qarab aytilgan “mumkin emas” so‘zini tushunadi. Nutq orqali bolaning xatti-harakatiga ta’sir ko‘rsatish imkoniyati paydo bo‘ladi. Har qanday tovush yoki bo‘g‘in, agar u ma’lum bir ma’noga ega bo‘lsa, bola uchun “so‘z” hisoblanadi. Ko‘pchilik bolalar bu yoshda taxminan 5-10 tagacha so‘zlarni ayta boshlaydi, bular odatda quyidagilar bo‘ladi: “mama”, “papa”, “vov-vov” (it ovozi), “bi-bi” (mashina ovozi), “ber”, “ol” va boshqalar. Bola ko‘pincha so‘zlarning o‘zak qismidagi tovushlaridan osonlashtirilgan so‘zlarni yaratadi va qisqa iboralarga o‘tadi; otlar, fe’llar va olmoshlarni ishlata boshlaydi. Bola kattalarning nutqini diqqat bilan tinglaydi, faqat alohida so‘zlarni emas, balki butun iboralarni ham takrorlashga harakat qiladi. Bu yoshda bola nutqni

o'zlashtirishga juda sezgir bo'ladi. Bir yarim yoshgacha bolalar odatda "so'z-komplekslar" bilan kifoyalanadilar — ya'ni bitta so'zdan iborat gaplar bilan fikr bildiradilar. Vaziyatga qarab, bitta so'z turlicha ma'no kasb etishi ham mumkin.

1.6 - 2 yoshgacha. 1 yosh 6 oydan keyin bolalar predmetlarni nafaqat passiv nutqda, balki faol nutqda ham umumlashtira boshlaydilar. Biroq faol nutqda umumlashtirish jarayonida dastlab ko'plab xatolar qiladilar. Yosh o'tishi bilan bolaning muloqotga bo'lgan ehtiyoji kuchayadi. U nimanidir olishni, so'rashni istaydi. Bu uning butun faoliyatiga hamroh bo'lib, faol nutqning rivojlanishiga turtki beradi. Asta-sekin bolalar nafaqat so'zlarni, balki butun iboralarni ham takrorlay boshlaydilar. Takrorlash qobiliyati asosida bolaning lug'at boyligi kengayadi. 1 yosh 6 oydan keyin bolalar o'yin davomida ham so'zlardan foydalanishni boshlaydilar. Mustaqil nutqda nutqiy reaksiyalarning nisbiy og'irligi ham o'zgaradi. 1 yosh 6 oydan 1 yosh 9 oygacha bola to'g'ri aytilgan so'zlar sonini ko'paytiradi, ya'ni u endi «myau» demay, «mushuk» deyishi mumkin. Garchi so'zlarni talaffuz qilish hali mukammal bo'lmasa-da va uni asosan yaqinlari tushunsa-da, bu muhim o'zgarish hisoblanadi. Nutq rivojlanishidagi katta yutuqlardan biri — bolada savollar paydo bo'lishidir, masalan: «Bu nima?», «Qanday?» Bu esa uning bilishga qiziqishi kuchayganidan dalolat beradi. Bu yoshda bola rasmlarga katta qiziqish bildiradi. U allaqachon oddiy syujetli rasm asosida hikoya mazmunini tushuna boshlaydi, kattalarning savollariga javob beradi, rasmda tasvirlangan predmetlarning nomlarini tez eslab qoladi va ularni boshqa predmetlar orasidan topa oladi. Ikki yoshdan boshlab bola pasiv va aktiv lug'at boyligini tezda to'playdi, asta-sekin tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni va gapning grammatik tuzilishini o'zlashtira boshlaydi. Bularning barchasi nutqiy amaliyot va kattalar bilan doimiy muloqot jarayonida ro'y beradi.

2 - 3 yoshgacha. Bola uch va undan ko'p bo'laklardan iborat so'zlarni ishlata boshlaydi, lekin so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishda ba'zan qiyinchiliklar bo'lishi mumkin. Masalan, "velosiped" so'zini "apiped" yoki "vesiped" deb aytishi mumkin. Bu yoshda bola ko'plab savollar beradi: "Nega?", "Qayerda?", "Qachon?", "Nima uchun?". Bu uning kognitiv faoliyatining rivojlanishini ko'rsatadi. 3 yoshga kelib, bola nutqni asosiy muloqot vositasi sifatida ishlatadi. Yangi so'zlarni tezroq o'rganadi va uning lug'ati 3-4 baravarga kengayadi. Agar ikki yoshli bola taxminan 500-1000 ta so'zni bilsa, bir yildan so'ng u lug'atini ikki baravarga kengaytiradi. Lug'atdagi so'zlar asosan ot so'z turkumi (60%), so'ngra fe'l so'z turkumi (25-27%) va sifat so'z turkumi (10-12%)dan iborat. Bola o'z nutqida sifatlarni nafaqat hajm, balki rang, sifatni ifodalashda ham qo'llaydi, lekin, ba'zida, sifatlar va otlar orasida kelishmovchiliklar yuzaga keladi. 3 yoshga kelib, bola nutqni faqat o'zaro muloqotda ishlatib qolmay, balki ta'lim - tarbiya olish jarayonida ham uni faol qo'llay boshlaydi.[2]

Ilk bolalik davrida nutq rivojlanishi bolaning ijtimoiy va aqliy taraqqiyoti uchun asosiy omil hisoblanadi. 1,5 yoshdan boshlab bola so'zlarni faol ravishda qo'llay boshlaydi, lekin talaffuz va umumlashtirishda ko'plab xatolarga yo'l qo'yadi. 2 yoshga kelib, bolalar mustaqil so'zlar va oddiy gaplardan foydalanadi, savollar berishni boshlaydi, passiv va aktiv so'z boyligi tez sur'atda oshadi. 3 yoshga borib esa, nutq asosiy muloqot vositasiga aylanadi, murakkab gaplar tuziladi, grammatik shakllar shakllanadi, lekin talaffuzda hali ba'zi xatolar saqlanib qoladi. Nutq rivojlanishi bola tafakkuri, eslab qolish va umumlashtirish qobiliyatining o'sishini ham belgilaydi. 3 yoshda nutqning ta'lim va tarbiya jarayonida ahamiyati sezilarli darajada ortadi, shuning uchun nutqni to'g'ri ishlatish bolalar uchun muhim ahamiyatga ega. To'g'ri va

boy nutqni shakllantirish uchun bola bilan faol, aniq va to'g'ri tilda muloqot qilish, nutqiy faoliyatni doimiy rag'batlantirib borish juda muhim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh. E. Toxtiyarova, Sh. D. Shakirova, N. Z. Abidova - "Nutqning ontogenezdagi rivojlanishi". O'quv qo'llanmasi. "Innovatsiya-Ziyo". T.:2020. B. 42, 52.
2. Л. Р. Муминова, Я. Е. Чичерина, Д. А. Нуркельдиева, Э. Н. Назарова, В. И. Хисамутдинова, Л. Э. Сахиева - "Диагностика психофизического развития детей первых трех лет жизни". Методическое пособие. Республиканский Центр Социальной Адаптации Детей. Т.: 2007. С.16, 35-36
3. М. Abdurasulova - "Ilk bolalik davrida nutqning rivojlanishi va uning ahamiyati". Maqola. B. 8
4. <https://www.michigan.gov/mikidsmatter/parents/infant/milestones>.